

**"TALMEH " SAN'ATI VA UNING G'OYAVIY BADIY FUNKTSIYASI"****Oqibatxon Xakimova Odiljon qizi***FarDU o'zbek adabiyotshunosligi 1-kurs magistranti.**Ilmiy rahbar: Islombek Mannopov*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqola Sharq mumtoz adabiyotida g'azal janrining o'rni, tarixiy taraqqiyoti, turlari, talmeh san'ati haqida qisqa ma'lumot berish bilan boshlanadi. Maqolada mazkur g'azallar ma'no, vazn, badiiy ifoda xususiyatlari jihatidan malakali talqin etiladi hamda Ahmad yassaviyning "devoni hikmati"i va yangi topilgan namunalar haqida.*

**Kalit so'zlar:** *G'azal, harora, ramz, tasavvuf, qofiya, radif, ritm, ishq, ishora,*

**Abstract.** *This article begins with a brief description of the role of the ghazal genre in Eastern classical literature, its historical development, types, and the art of talmeh. In the article, these ghazals are competently interpreted in terms of their meaning, weight, and features of artistic expression, as well as about the "divine wisdom" of Ahmed Yassavi and newly discovered examples.*

**Key words:** *ghazal, harora, symbol, mysticism, rhyme, radif,, rhythm, love, gesture,.*

Sharq mumtoz adabiyotida an'anaviylik ustuvor. Bu badiiy tasvirda ham, obrazlar olamida ham, mazmun va mundarijada ham kuzatiladi. Ammo, zohiran qaraganda, bir xillik, o'xshashlik bo'lib tuyuladigan bu holat zamirida ham har bir ijodkorning individual, o'ziga xos poetik ifoda usullari shakllanib borgan. Zotan, mashhur allomalarimiz ijodkorning mahorati va o'ziga xosligi asarda nimani ifodalashiga qarab emas, balki voqelikni qanday tasvirlashiga qarab belgilanishini ta'kidlashadi. G'azalning dastlabki baytida mahbuba kipriklarining tashqi ko'rinishi va oshiq qismati bilan munosabati, ma'lum darajada, sokinlik bilan tasvirlanadi.

Ammo ikkinchi baytdanoq, harora g'azallarga xos bo'lgan jo'shqin pafos yuzaga chiqadi. Shoira talmeh san'atini qo'llab, "Analhaq" — Mansur Halloj maqomi va taqdirini yodga oladi. Shu o'rinda qo'llangan talmeh baytni ziynatlabgina qolmay, balki g'azal mazmunini, uning yo'nalishini,

O'zbek mumtoz adabiyotida harora g'azallar( 50-bet)

lirik qahramon xarakterini belgilashda juda katta badiiy vazifa ham bajargan:

Bu ushshoq ahlini qasdinakim saf chekti mujgonlar,

Tutubon aql-u hush idrokini band etti mujgonlar.

Na sahrov-u na shahr-u na vatan ichra qaror etgum,

Analhaqdek o'ziga mast etib mahv etti mujgonlar.

Xo'ja Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat"i dunyoga kelishi bilan turkiy xalqlar o'zining mustaqil tariqat kitobiga, tom ma'nosi ila Ma'rifat, Haqiqat, Ruhoniyat qomusiga sohib millat o'laroq e'tirof etilgan. Ahmad Yassaviydan keyingi turkiy xalqlarning tarixi - ma'naviy-axloqiy hayotda yangi yo'nalish, yangi ilohiy nuqtai nazar

shakllangan, komil inson haqidagi tasavvurlar to'la oydinlashgan tarix erur. Zero, arab va fors tasavvuf tushunchalarini milliy ehtiyojga muvofiq ravishda o'zlashtirish va favqulodda sodda, xalqona talqinlarni yaratishni ham tarix Ahmad Yassaviy zimmasiga yuklagan edi. So'fi Olloyor avlodlarga Ahmad Yassaviydan "ulug' bir kitob" meros qolganligini aytadi. Bu - hikmatlar majmuasi ekanligi aniq. Ammo ushbu nodir kitobning qadimiy qo'lyozmasi saqlanmagan. Saqlanib qolgan bo'lsa-da, haligacha topilgani yo'q. Muammolarning muammosi ana shu. Ahmad Yassaviy adabiy shaxsiyati va ijodiyotiga ishtibohli qarashlar, adolatsiz va bir yoqlama tanqidlar, bir-biriga zid va mutlaqo teskari munozaralar - bularning deyarli hammasi asosan shu zaminda paydo bo'lgan. Biroq buyuk Yassaviy ijodiyoti ta'qiqlash bilan to'xtab qoladigan, tanqid va tahqirlashdan ahamiyatini boy beradigan bir ijod emas. Aksincha, u hech qanaqa qarshilik va zo'ravonlikka mag'lub bo'lmaydigan she'riy merosdir.

Ayo mo'min, kirgil yo'lg'a murod istab,  
Jon bahridin o'tgin Rahim Rahmon uchun.  
Gunohingga pushaymon bo'l sidqing birla,  
Tavba qilg'il rahm etguvchi G'ufiron uchun.

Devoni hikmat" insonni nafsparastlikdan, ma'rifatsizlik va yirtqichlashuvdan muhofaza etadi. "Devoni hikmat" odam farzandini shaytoniy hiylalar, hayvoniy quturishlardan asraydi.

Xo'ja Ahmad Yassaviy DEVONI HIKMAT (Yangi topilgan namunalar)

Bu bebaho asar hirsu havoga berilib "odamiyatni pok-pokiza yeb" qo'yish kulfat va musibatlaridan ogohlantiradi. Hamma gap uni qanday o'qish va qanday anglash, anglabgina qolmasdan Yassaviy so'zlariga amal ham qila bilishdadir. Bir narsa ma'lum: "Devoni hikmat"ning keyingi asrlarga mansub qo'lyozma va toshbosma nusxalarida hikmatlarning umumiy miqdori ancha ko'pdir. Buning bir isboti sayramlik olim Mirahmad Mirxoldoro'g'li bilan usmonli turk olimi Metin Oqarning Istanbulda bosilgan "Xoja Ahmad Yassaviyning yangi topilgan hikmatlari" nomli kitobi hisoblanadi. Xorijdagi, xususan, Turkiyadagi ilmiy izlanishlar va natijalardan yetarli ma'lumotga ega. Shuningdek, o'zining ham maqolalari Turkiyadagi jurnal va majmualarda ketma-ket chiqib turibdi. Eng muhimi, ba'zi yoshlarga o'xshab jindek muvaffaqiyatdan hozircha esankiragani ham, maqto'v kutib to'xtagani ham yo'q. "Devoni hikmat"ning yangi-yangi qo'lyozmalarini izlash, qo'lga kiritilganlarini boshqalari bilan qiyoslash va ko'zlangan bosh maqsadga yetishish uchun u vaqtdan ancha unumli foydalanmoqda. Buning bir samarasi esa qo'lingizdagi kitobdir. Uni nashr etishdan ko'zlangan maqsad faqat yangi hikmatlar bilan o'quvchini tanishtirish, tanlangan she'rlar Yassaviy qalamiga mansubligiga ko'pchilikni ishontirish yoki iqror aylash emas. Yassaviy ijodiyotini puxta anglash va his qilishga yaqindan yordam beradigan bir qancha ilmiy-adabiy, irfoniy-manqabaviy manbalar bizgacha yetib kelgan. Shulardan biri hazratning xalifalaridan bo'lmish So'fiy Muhammad Donishmandning «Mir'ot ul-qulub» nomli risolasidir. Kitobda mana shu risola ham ilova qilindiki, o'quvchilar undan bahramand bo'lishlari shak-shubhasiz.

"Devoni hikmat" muhiblari, xususan, din, tasavvuf, adabiyot mutaxassisleri, tarixchi va tilshunos olimlarning fikr-mulohazalarini ham eshitishdir. Chunki to'plamdagi qator to'rtliklar Yassaviyniki ekanligi shaxsan menda ishtiboh uyg'otdi. Bunday shubha va ishonchsizlik boshqalarda ham tug'ilishi mumkin. Lekin Nodirxon Hasan zarur, xayrli, nainki adabiyot, fan, xalq uchun ham muhim bir ishga qo'lganligiga inonmaslikning iloji yo'q. Zero, "Devoni hikmat"ning hech bo'lmaganda, qiyosiy-yig'ma matnini tuzmaslik - yassaviyshunoslik istiqboliga

Xo'ja Ahmad Yassaviy DEVONI HIKMAT (Yangi topilgan namunalar)

loqayd qarash, bir paytlardagi besamar tortishuv, g'arazli iddao va johilona munozaralarga yana yon bermoqdir.

O'n beshimda huru g'ilmon qarshu keldi,

Boshin urub, qo'l qovshurub ta'zim qildi.

Firdavs otlig' jannatidin muhzir qildi,

Diydor uchun barchasini go'vdum mano.

"Devoni hikmat"i turli asrlarda turli joylarda bir qancha kotiblar tomonidan ko'chirilgan. XIX-XX asrlarda Toshkent, Kogon, Qozon, Istanbul kabi shaharlarda toshbosmada chiqarilgan. Oktyabr inqilobidan keyin esa Ahmad Yassaviy ijodi qatag'on qilinishi bilan xalqimiz "Devoni hikmat"dek buyuk bir asarni o'qishdan mahrum qilingan. Lekin xorijda, ayniqsa, Turkiyada Ahmad Yassaviy ijodiga qiziqish va uni o'rganish ishlari to'xtab qolmadi. Shuning natijasi sifatida 1983 yil doktor Kamol Eraslonning "Devoni hikmat"dan sochmalar" kitobi nashr etilgan.

Talmeh arabcha so'z bo'lib, ma'nosi "chaqmoq chaqilishi", "bir nazar tashlash" demakdir. Badiiy san'at sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham tasvirlashdir.

Sulaymon saltanatlik podshosen,

Masih anfoslik, Yusufliqosen.

Ushbu baytda uchta shaxs nomi: Sulaymon, Masih va Yusuf tilga olingan. Ularning uchalasi haqida ham faqat o'zbeklarda emas, turli xalqlarda juda ko'plab afsona, rivoyat, qo'shiq, hatto dostonlar yaratilgan. Ular bilan bog'liq rivoyatlar "Qur'on" da ham qayd etiladi. Ma'lumki, Sulaymon – Dovud payg'ambarning o'g'li edi, u o'n to'qqiz aka-uka orasida eng donishmandi bo'lgan. Shu tufayli u barcha yer yuzidagi odamlarnigina emas, qurt-u qumursqaga, qushlarga, hatto "ins-u jinslar"ga ham hukmronlik qilgan. "Sulaymon saltanatlik podshosen" misralari ana shu afsonaviy shaxs qudratini mo'jaz shaklda eslash orqali badiiy tasvir qahramonini tavsiflashga xizmat qilmoqda.

<https://malumot.ru/talmeh/>, <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/talmeh/>

Solib borma meni, ey Yusufi husn,

Bukun Ya'qubtek bayt ul-hazanda.

Bu yerdagi talmeh "Yusuf va Zulayxo" turkumidagi dostonlardan xabardor

bo'lishni taqazo etadi. Ma'lumki, Yusuf Ya'qub payg'ambarning sevimli farzandi bo'lgan. Ammo taqdir ayni mana shu farzandidan muayyan muddat ayrilib yashashini ravo ko'radi. Natijada ota g'am uyi (bayt ul-hazan) da yashashga majbur bo'ladi.

Yusuf o'zining tashqi ko'rinishi – go'zalligi bilan ham boshqalardan ajralib turar edi. Demak, lirik qahramonning o'z mahubasiga "Yusufi husn" deb murojaat etishi bejiz emas.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, yangi hikmatlar "Devoni hikmat" nusxalari tarkibidagi mavjud hikmatlar hajmini nafaqat kengaytiradi, balki Yassaviy ijod olamini boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, Yassaviy maktabi shoirlarining "Devoni hikmat"ga qo'shilgan she'rlarini ajratish, ularni Yassaviy hikmatlari bilan qiyoslash va tahlil qilishga yordam beradi. Ayniqsa, Yassaviy hikmatlarining qadimiy matnlarini izlashga chorlaydi. Hikmatlarning yangi namunalari, ular bilan tanishgan o'quvchilarning badiiy-estetik zavqini oshirishga, ma'naviy-ruhiy saviyasini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. "Devoni hikmat"ning qadimgi nusxalari bizgacha yetib kelmaganligi ko'pchilikka ayon. Shu sababli "Devoni hikmat"ning tanqidiy matnini tuzish hozircha imkonsiz. Lekin keyingi asrlardagi qo'lyozmalar, toshbosma nusxalar, yurtimizdagi va xorijdagi nashrlar asosida "Devoni hikmat"ning ishonchli bir yig'ma-qiyosiy (solishtirma) matnini tayyorlash zarurdirki, bunda mazkur nashrning ham yordami tegadi deb umid qilamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Nashrga tayyorlovchi R.Abdushukurov. Toshkent, 1992.
2. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/talmeh/>
3. Адабий турлар ва жанрлар. 1992. 3 жилдлик. 2-жилд. Лирика. Тошкент:
4. Hayitmetov, A. 1996. Turkiy tilda adabiyotdan ilk nazariy qo'llanma. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog'a. Toshkent: Xazina.